

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI MONITORING QILISH TEXNOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7800182>

Panjiyeva Fotima Dilmurod qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini monitoring qilish texnologiyasining maqsadi, vazifasi va bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar.

monitoring, diagnostika, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy faoliyat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy holati va rivojlanishini monitoring qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining muhim faoliyat turlaridan biri hisoblanadi, chunki tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash ularning kasbiy faoliyatining asosiy vazifasidir. Shu bilan birga hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi monitoringini olib borishda ko'plab muammolarga duch kelinmoqda. Bunga sabab pedagog xodimlarda monitoring o'tkazish bo'yicha yetarli bilimlarning g'oyalarning yo'qligi bilan bo'liq. Ko'pincha pedagog hodimlar "monitoring" va "diagnostika" tushunchalarini bir-biridan farqini bilmaydilar.

Monitoring so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kuzatish, nazorat qilish degan ma'nolarni bildiradi. Monitoring kundalik hayotning har bir sohasida qo'llaniladi. Masalan ekologiya, bank, pedagogika va boshqa sohalarda. Ma'lum bir hodisa yoki jarayonlarning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash monitoringning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Diagnostika so'zi esa yunoncha so'zdan olingan bo'lib aniqlashga qodir degan ma'noni beradi. Diagnostika ishlari tibbiy hujjatlarni o'rganish va ularni tahlil qilishdan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, monitoring tushunchasi diagnostika tushunchasidan keng ma'noga ega bo'lib, bolalarni jismoniy rivojlanish monitoringini o'tkazishda pedagogik diagnostika usullaridan ham foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini monitoringi mazmuni 6 ta ish yo'nalishidan iborat:

1. Bolalar salomatligi holati;
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarlik diagnostikasi;
3. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi;
4. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari sifati;
5. Uzluksiz ota-onalar bilan ishlash;
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning jismoniy tarbiyasi va rivojlanishini monitoring qilish maqsadi: Bolalar bilan jismoniy tarbiya va dam olish ishlari sifatini oshirish.

Vazifalari esa quydagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqichda

- bolalarning jismoniy rivojlanishi, bolalarning kasallanishi bo'yicha ishlarning samaradorligini tahlil qilish va baholash;
- bolalar jismoniy tarbiyasining davlat standartlari nuqtai nazaridan tarbiya va ta'lim jarayoni samaradorligini baholash;
- bolalarning jismoniy rivojlanishidagi pedagog faoliyatidagi muammolarni aniqlash;
- sog'lomlashtiruvchi yordamidan foydalanishda pedagoglarning pedagogik malakasi darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqichda:

- pedagog hodimlarning kelgusidagi harakatlarini bashorat qilish (uslubiy kengashda, pedagogik kengashda);
- bolalarni jismoniy tarbiya va rivojlantirish sifatini oshirish, ularning salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Buning uchun bunga tashabbuskor pedagog hodimlarni jalb qilish, ijodiy muammoli guruh yaratish kerak;
- jamoaviy ish rejasini ishlab chiqish, pedagog hodimlar bilan birgalikdagi tadbirlarni belgilash;

- bajarilgan ishlarning samaradorligini aniqlash.

Uchinchi bosqichda:

- rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- pedagogik jarayonni tuzatishni amalga oshirish;

- kasallanishning kamayishiga, bolalar salomatligi va ularning jismoniy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarni bartaraf etish.

To'rtinchi bosqichda (oraliq diagnostika):

- maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini davlat standarti bilan solishtirish;

- bolalarning kasallanish ko'rsatkichlarini boshlang'ich bilan solishtirish;

- amalga oshirilayotgan faoliyat samaradorligi tahlilini solishtirish;

- ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Beshinchi bosqichda (yakuniy - diagnostika):

- monitoring ob'ektlari holatini baholashni aniqlash. Xususan: bolalarning jismoniy salomatligi holati, kasallanish darajasini baholash;

- pedagoglarning kasbiy bilim va malakalarini tahlil qilish;

- uslubiy ishni tahlil qilish (samaradorlik);

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini aniqlash;

- ota-onalarning bolalarni jismoniy rivojlanishi va tarbiyalash bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga bergan bahosini tahlil qilish.

Nazorat jarayonining barcha funksiyalari va bosqichlari, ya'ni uning barcha elementlari tarkibiy va funksional jihatdan bir-biriga bog'langan bo'lib, pedagogik monitoringning yagona siklini ifodalaydi. Ushbu komponentlardan birortasining yo'qolishi monitoringni samarasiz qiladi.

Xulosa o'rnida monitoring texnologiyasini o'zlashtirish maktabgacha ta'lim muassasasining har bir pedagog hodimiga nafaqat o'zining pedagogik faoliyati sifatini oshirishga, balki har bir tarbiyalanuvchining jismoniy tarbiya jarayonini farqlash va individuallashtirishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini monitoring qilishning mohiyati bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni davriy ravishda to'plash va umumlashtirish, ularning rivojlanish dinamikasini va sog'lig'ini kuzatish, pedagogik xulosalarni shakllantirish va tegishli tuzatish tadbirlarini o'tkazishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградова, Н.А., Управление качеством образовательного процесса в ДОУ [Текст]: метод. пособие / Н.А.Виноградова, Н.В.Микляева. – М.: Айрис – пресс, 2006. – 192 с. – (Дошкольное воспитание и развитие).

2. Виноградова, Н.А., Микляева, Н.В., Микляева, Ю.В., Абрамова, Р.М., Шпаковская, Л.И. Мониторинг в современном детском саду [Текст]: метод. пособие / под ред. Н.В.Микляевой. – М.: ТЦ Сфера, 2008. – 64 с. – (Библиотека руководителя ДОУ).

3. Виноградова, Н.А., Микляева, Н.В., Толстикова, С.Н. и др. Дошкольное образование [Текст]: словарь терминов / состав. Н.А.Виноградова и др. – М.: Айрис – пресс, 2005. – с. 172 – 173. – (Дошкольное воспитание и развитие).

4. Микляева, Н.В. Инновации в детском саду [Текст]: учеб. пособие / Н.В.Микляева. – М.: Айрис – пресс, 2008. – 160 с. – (Дошкольное воспитание и развитие).

5. Микляева, Н.В. Управление образовательным процессом в ДОУ с приоритетом интеллектуального развития детей [Текст]: метод. пособие / Н.В.Микляева, Ю.В.Микляева. – М.: Айрис – пресс, 2006. – 224 с. – (Дошкольное воспитание и развитие).